

**MEHNAT MUHOFAZASI BO'YICHA HODIMLARNI
SERTIFIKATLASH VA MALAKA OSHIRISH TIZIMI**

Namangan davlat universiteti Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi talabasi

Burxonova H.O

Anotatsiya: Mazkur ishda mehnat muhofazasi sohasida xodimlarni sertifikatlash va malaka oshirish tizimining ahamiyati hamda mavjud muammolari yoritilgan. Tizimni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan. Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlash uchun xodimlarning bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mehnat muhofazasi, sertifikatlash, malaka oshirish, xavfsizlik, ishlab chiqarish, xodimlar, o'quv tizimi, baholash, yondashuv, qonunchilik.

Аннотация: В работе освещены актуальность и существующие проблемы системы аттестации и повышения квалификации работников в области охраны труда. Были высказаны практические предложения по совершенствованию системы. Обоснована необходимость регулярного повышения знаний и навыков работников по обеспечению безопасности на производстве.

Ключевые слова: охрана труда, сертификация, повышение квалификации, безопасность, производство, работники, система обучения, оценка, подход, законодательство.

Annotation: This work highlights the importance and existing problems of the system of certification and advanced training of employees in the field of labor protection. Practical proposals are given for improving the system. The need for regular improvement of the knowledge and skills of employees to ensure safety in production is substantiated.

Keywords: labor protection, certification, advanced training, safety, production, employees, training system, assessment, approach, legislation.



Kirish

Bugungi kunda mehnat muhofazasi har qanday ishlab chiqarish jarayonining ajralmas va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ishchilar salomatligini muhofaza qilish, ishlab chiqarishdagi xavf-xatarlarning oldini olish, mehnat sharoitlarini yaxshilash zamonaviy mehnat munosabatlarining asosiy talablari qatoriga kiradi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida yuzaga keladigan texnogen xavf-xatarlar, baxtsiz hodisalar va favqulodda vaziyatlar fonida mehnat muhofazasiga doir bilim va ko‘nikmalarni egallagan, malakali mutaxassislarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, xodimlarni tizimli ravishda sertifikatlash va ularning malakasini oshirish mehnat muhofazasini ta‘minlashdagi eng samarali vositalardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ilg‘or tajribalar asosida sertifikatlash va malaka oshirish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu esa nafaqat xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ish beruvchi bilan ishchi o‘rtasidagi mas‘uliyatni kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur ishda mehnat muhofazasi sohasida xodimlarni sertifikatlash va malaka oshirish tizimining zarurati, mavjud holati hamda takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Ushbu mavzu to‘g‘risida umumiy tushuncha:

Mehnat muhofazasi — bu ishchi-xodimlarning hayoti, sog‘lig‘i va ish faoliyati xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyenik, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar majmuasidir. Har qanday tashkilot yoki sanoat korxonasida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, ishchilarning salomatligini muhofaza qilish va ishlab chiqarish jarayonidagi xavf-xatarlardan himoyalash muhim strategik vazifadir. Bu boradagi asosiy omillardan biri — bu sohaga aloqador xodimlarni zarur bilim va ko‘nikmalar bilan ta‘minlashdir. Aynan shu yerda sertifikatlash va malaka oshirish tizimining ahamiyati katta bo‘ladi.

Sertifikatlash — bu xodimlarning mehnat muhofazasi bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarining belgilangan me‘yorlarga muvofiqligini baholash va rasmiy tasdiqlash jarayonidir. Sertifikatlash orqali xodimlarning o‘z sohasidagi xavf-xatarlar,



himoya vositalari, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi, evakuatsiya qoidalari, favqulodda vaziyatlar harakati, texnik nazorat kabi masalalardagi bilimlari sinovdan o'tkaziladi. Sertifikatga ega bo'lgan xodim mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilgan holda ishlashga ruxsat oladi. Ko'pgina holatlarda bunday sertifikatlar qonunchilik asosida har yili yoki belgilangan davrlarda yangilanib borilishi shart.

Malaka oshirish esa xodimlarning mehnat muhofazasi sohasidagi bilimlarini yangilash, ularni zamonaviy talablar va texnologiyalar bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladigan o'quv-uslubiy jarayondir. Bu kurslar turli treninglar, seminarlar, vebinarlar, amaliy mashg'ulotlar shaklida bo'lishi mumkin. Malaka oshirish orqali xodimlar nafaqat nazariy bilimga, balki yangi texnologiyalarni qo'llash, xavfsizlik uskunalaridan to'g'ri foydalanish, xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va baholash, jamoaviy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish kabi jihatlariga ham ega bo'ladilar. Bu esa ularning ishlab chiqarishdagi faolligini oshiradi, mehnat unumdorligini ko'taradi va baxtsiz hodisalar sonini kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda mehnat muhofazasi bo'yicha xodimlarni tayyorlash, malakasini oshirish va sertifikatlash "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi Qonun, Mehnat kodeksi, Davlat me'yoriy hujjatlari (O'zbekiston Respublikasi Davlat mehnat inspeksiyasi, O'zgidromet, FVV va boshqa tegishli idoralarning qarorlari asosida) bilan tartibga solinadi. Ko'plab yirik sanoat korxonalari va davlat tashkilotlari mehnat muhofazasi bo'yicha doimiy ravishda ichki va tashqi o'quv kurslarini tashkil etadilar. Bundan tashqari, yurtimizda faoliyat yuritayotgan ko'plab o'quv markazlari, texnikumlar va oliy o'quv yurtlarida ham maxsus kurslar yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh, Rossiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda mehnat muhofazasi bo'yicha xodimlarni majburiy sertifikatlash tizimi ancha ilg'or darajada yo'lga qo'yilgan. Ular xavfsizlik bo'yicha xalqaro ISO standartlariga asoslangan bo'lib, zamonaviy xavfsizlik menejmenti tizimlari bilan uyg'unlashgan. O'zbekiston ham ayni yo'nalishda xalqaro tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etmoqda.

Shunday qilib, mehnat muhofazasi bo'yicha xodimlarni sertifikatlash va malaka oshirish tizimi — bu nafaqat huquqiy yoki tashkiliy talab, balki inson



salomatligini muhofaza qilish, ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim vositadir. Bunday tizimlarning joriy etilishi nafaqat baxtsiz hodisalarni kamaytiradi, balki umumiy mehnat madaniyatini ham oshiradi.

Mavzuning dolzarbligi

Bugungi kunda sanoatning barcha sohalarida ishlab chiqarish hajmining oshishi, yangi texnologiyalarning joriy qilinishi, mehnat sharoitlarining murakkablashuvi bilan birga, ishchi-xodimlar sog'lig'i va hayoti uchun xavf soluvchi omillar ham ortib bormoqda. Ayniqsa, texnogen xatarlar, ekologik muammolar, ishlab chiqarishdagi intizomsizlik va texnik xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklar mehnat muhofazasini kuchaytirish zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda. Ana shunday sharoitda mehnat muhofazasi bo'yicha xodimlarning malakasi va bilim darajasi hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Xodimlarni zamonaviy xavfsizlik standartlari asosida o'qitish, ularga real xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va oldini olishga oid ko'nikmalarni berish nafaqat ularning hayoti va salomatligini asrash, balki ishlab chiqarishning uzluksizligini ham ta'minlaydi. Mamlakatimizda olib borilayotgan sanoat modernizatsiyasi, yangi zavod va inshootlar barpo etilishi, chet ellik investorlar ishtirokidagi loyihalarning ko'payishi — bularning barchasi mehnat muhofazasiga doir xalqaro talablar va malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni talab qilmoqda.

Yana bir muhim jihat shundaki, mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilinmagan holatlar ko'pincha insoniy talofatlar, moliyaviy zararlar va qonuniy javobgarlik bilan yakunlanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ko'plab baxtsiz hodisalar aynan xodimlarning bilim yetishmasligi, noto'g'ri harakatlari yoki xavfsizlikka e'tiborsizlik oqibatida sodir bo'lmoqda. Shu sababli xodimlarni muntazam sertifikatlash va malakasini oshirish tizimi bugungi kunda nihoyatda dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mavzuga oid muammolar

Mehnat muhofazasi sohasida xodimlarni sertifikatlash va malaka oshirish tizimini joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:



Sertifikatlash va malaka oshirish kurslarining sifatsiz tashkil etilishi – Ba’zi tashkilotlarda o’quv jarayoni faqat qog’ozda yuritiladi, real bilim va amaliy ko’nikmalar berilmaydi. Bu esa sertifikatlashni rasmiyatchilikka aylantirib qo’yadi.

O’quv dasturlarining eskiligi va zamonaviy talablarga mos kelmasligi – Yangi texnologiyalar va xavfsizlik standartlari jadal rivojlanayotgan bir vaqtda, o’quv dasturlar ko’p hollarda yangilanmaydi yoki tor sohalarga ixtisoslashmagan bo’ladi.

Mutaxassis o’qituvchilarning yetishmasligi – Ayrim hududlarda mehnat muhofazasi bo’yicha yuqori malakali trenerlar va o’qituvchilarning kamligi, sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini cheklab qo’ymoqda.

Xodimlar tomonidan bu jarayonga sust yondashuv – Sertifikatlash va malaka oshirish ko’pchilik tomonidan majburiyat sifatida qabul qilinadi, shaxsiy xavfsizlikni oshirish vositasi sifatida emas.

Mahalliy va xalqaro standartlar o’rtasidagi tafovut – Ba’zan xalqaro talablar va O’zbekiston me’yoriy hujjatlari o’rtasida ziddiyatlar bo’ladi. Bu esa xorijiy kompaniyalar ishtirok etgan loyihalarda chalkashliklar keltirib chiqaradi.

Moliyalashtirish masalasi – Ko’plab kichik korxonalar va tashkilotlarda malaka oshirish uchun mablag’ ajratilmaydi yoki yetarli darajada qo’llab-quvvatlanmaydi.

Muammolarni oldini olish bo’yicha yechim va takliflar

Mehnat muhofazasi sohasida hodimlarni sertifikatlash va malaka oshirish tizimi har qanday ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlikni ta’minlashda muhim o’rin egallaydi. Afsuski, bu tizimda mavjud muammolar ko’plab korxona va tashkilotlarda hali-hanuz to’liq bartaraf etilmagan. Shuning uchun bu muammolarni chuqur tahlil qilib, ularning oldini olish uchun aniq, amaliy va istiqbolli yechimlar ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir.

Birinchidan, hozirgi kunda ko’plab o’quv markazlarida taklif etilayotgan kurslar va dasturlar mazmunan eskirgan, zamonaviy xavfsizlik texnologiyalarini qamrab olmaydi. Ushbu holat natijasida hodimlar faqat nazariy bilimlar bilan cheklanishadi, amaliy ko’nikmalar shakllanmaydi. Bu esa real ishlab chiqarish sharoitida xavfli vaziyatlarga nisbatan ularning tayyorgarligini pasaytiradi. Bu muammoni bartaraf etish uchun zamonaviy o’quv dasturlarini ishlab chiqish, ularni



amaliy mashg'ulotlar bilan boyitish va virtual texnologiyalar (masalan, VR trenajyorlar)dan foydalanish zarur.

Ikkinchidan, malaka oshirish va sertifikatlash jarayonida test va baholash mezonlari ko'pincha yuzaki, sifatsiz yoki korrupsiyaviy xatti-harakatlarga yo'l ochadigan holatlarni yuzaga keltiradi. Ayrim holatlarda sertifikatlar faqat hujjat uchun olinadi, real bilim va ko'nikmalar baholanmaydi. Bunday tizim xavfli ishlab chiqarish tarmoqlarida katta xavf tug'diradi. Bu muammoning oldini olish uchun elektron baholash tizimlarini joriy etish, test va amaliy mashqlarni yagona markazlashtirilgan platforma orqali shaffof yuritish lozim.

Uchinchidan, mehnat muhofazasi bo'yicha malaka oshirishga e'tibor pastligi ko'pincha tashkilot rahbariyatining beparvoligi yoki ushbu sohani ikkinchi darajali deb hisoblashidan kelib chiqadi. Ko'plab ish beruvchilar o'z xodimlarini muntazam malaka oshirishga yuborishni ortiqcha xarajat deb hisoblaydi. Bunday holatlarni oldini olish uchun davlat tomonidan qat'iy tartib va javobgarlik choralari belgilanishi kerak. Xususan, mehnat muhofazasi bo'yicha xodimni malaka oshirishga yubormagan tashkilotlarga nisbatan ogohlantirish, jarima yoki ma'muriy javobgarlik choralari belgilash maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, qishloq joylarida va chekka hududlardagi korxonalar uchun malaka oshirish imkoniyatlari juda cheklangan. Uzoq masofalar, transport muammolari va o'quv markazlarining yo'qligi tufayli ko'plab xodimlar bu tizimdan chetda qolmoqda. Buning yechimi sifatida har bir viloyat, hatto tuman miqyosida ham raqamli texnologiyalar yordamida masofaviy o'qitish tizimlarini yo'lga qo'yish zarur. Mobil ilovalar, videodarslar va onlayn test platformalari bu borada eng maqbul vositalardan biri bo'lishi mumkin.

Beshinchidan, mehnat muhofazasi bo'yicha bilimlarning yangilanmasligi ham dolzarb muammo hisoblanadi. Texnologiyalar va ishlab chiqarish usullari tez o'zgarayotgan hozirgi davrda xodimlarning bilimlari muntazam yangilanib borishi lozim. Shu maqsadda uzluksiz o'qitish tizimi joriy qilinishi, sertifikatlar amal qilish muddati tugagach, xodimlar qayta attestatsiyadan o'tishlari kerak. Bu, o'z navbatida, ularning bilimlarini doimiy yangilab borishga undaydi.



Shuningdek, xodimlarning mehnat muhofazasi bo'yicha ongini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Aksariyat holatlarda hodimlar xavfsizlik qoidalariga befarqlik bilan qaraydilar. Buni bartaraf etish uchun psixologik yondashuv, motivatsion treninglar va samarali targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishi lozim. Xavfsizlikni ustuvor qadriyat sifatida shakllantirish – bu samarali mehnat muhofazasi tizimining asosiy omillaridan biridir.

Bundan tashqari, xalqaro tajriba va standartlardan keng foydalanish zarur. Jumladan, Yevropa davlatlari, Yaponiya yoki Koreya Respublikasi kabi ilg'or mamlakatlardagi mehnat muhofazasi tizimlaridagi uslublarni o'rganish, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish natijadorlikni sezilarli darajada oshiradi. Davlat darajasida xorijiy ekspertlar ishtirokida tajriba almashinuvi seminarlarini tashkil etish foydali bo'ladi.

Yana bir muhim jihat — moliyaviy rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yishdir. Agar malakasini oshirgan xodimlarga qo'shimcha ustamalar, xavfsizlikka rioya qilgan bo'limlarga esa rag'bat pullari yoki soliq yengilliklari ajratilsa, bu tizimga bo'lgan qiziqish ham ortadi.

Xulosa: Xodimlarni mehnat muhofazasi bo'yicha sertifikatlash va malakasini oshirish bugungi kunda har bir ishlab chiqarish korxonasi va tashkilot uchun zaruriy ehtiyojga aylangan. Ushbu tizim nafaqat qonuniy talablarni bajarish, balki inson salomatligi, hayoti va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mavjud tizimda bir qator dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular qatoriga o'quv dasturlarining eskirganligi, baholash jarayonining shaffof emasligi, rahbariyatning beparvoligi va hududiy tengsizliklar kiradi. Bu muammolar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, ishlab chiqarishda turli noxush hodisalar, baxtsiz voqealar va inson salomatligiga putur yetkazadigan holatlar soni oshib boradi.

Shu sababli, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan, real amaliyotga yaqinlashtirilgan va doimiy takomillashtiriladigan malaka oshirish va sertifikatlash tizimini yaratish dolzarb vazifadir. Bu yo'nalishda davlat siyosatining qat'iyligi, ish



beruvchilarning mas'uliyati va xodimlarning xavfsizlikka bo'lgan ongini oshirish muhim omillar bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat muhofazasini kuchaytirish va xavfsiz mehnat muhitini ta'minlash uchun hodimlarni yuqori malakali, amaliy ko'nikmaga ega mutaxassis sifatida tayyorlash — har tomonlama ustuvor yo'nalishdir. Bu esa barqaror ishlab chiqarish, sog'lom jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning mustahkam poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 28-noyabrdagi 408-son qarori “Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quv-uslubiy tizimni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom”.
3. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi rasmiy sayti – <https://www.mehnat.uz>
4. “Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi asoslari” o'quv qo'llanmasi / Mamatqulov A., Yo'ldoshev Z. – Toshkent: Oliy ta'lim, 2021.
5. Qodirov A., Karimov D. “Mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqarish” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
6. International Labour Organization (ILO) – “Occupational Safety and Health: Global strategy on OSH” – Geneva, 2022.
7. ISO 45001:2018 – Occupational health and safety management systems — Requirements with guidance for use.
8. Gulyamov M. "Innovatsion yondashuvlar asosida mehnat muhofazasini takomillashtirish yo'llari" // Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi jurnali, №3, 2023.
9. Bobonazarov B. “Texnosfera xavfsizligi asoslari” – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2020.